

UMUMTA'LIM TIZIMI AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING ZARURATI

**Shamsiyeva Mahfuza, Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi
o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-kutubxona tizimlarining maqsad va vazifalari, kitobxonlar bilan ishlashning interaktiv usul va yo'llarini izlash, shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida kutubxonachilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'z va tushunchalar: axborot-kutubxona tizimi, kutubxonachi, kitobxonlikni oshirish, kitobxonlar bilan ishlash, "Axborot kunlari", kasbiy mahorat

НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ СИСТЕМЫ ОБЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Шамсиева Махфуза, преподаватель Центра педагогического
мастерства Наманганской области.**

Аннотация: В данной статье освещаются цели и задачи информационно-библиотечных систем о поиске интерактивных методов и способов работы с читателями, а также о совершенствовании педагогического мастерства библиотекарей для повышения эффективности образования.

Ключевые слова и понятия; информационно-библиотечная система, библиотекарь, повышения читаемости, работа с читателями, «Дни информации», профессиональное мастерство

THE NEED FOR INNOVATIVE APPROACHES IN THE ACTIVITIES OF INFORMATION-LIBRARY INSTITUTIONS OF THE GENERAL EDUCATION SYSTEM

**Shamsiyeva Mahfuza, Teacher at the Namangan Region Center for
Pedagogical Excellence**

Abstrakt: In given clauses is spoken about search of new methods, ways and modes of work with the readers, improving knowledge and pedagogical skill of the librarians for increase of a learning efficiency

Key words and conceptions; the librarian, school library, increase of readership, job with the readers, " Days of the information", professional skill.

Ta'lim va tarbiya jarayonini sifat va samaradorligiga erishishda maktab kutubxonasining o'рни beqiyosdir. Maktab kutubxonasining yangi bilimlar manbai sifatidagi o'рни- axborotni ommalashtirish va shaxsning o'z-o'zini qaror toptirishga ko'maklashishda ko'rinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-4354-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, kutubxonalarni faoliyatini davr talablariga muvofiq innovatsiyon yondoshuvlar asosida takomillashtirining zaruriyati tug'ilmoqda.

Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manba kitobdir. Kitob o'qish maktabdagi ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liqdir, chunki bolalar muntazam o'qish san'ati bilan maktabda tanishadilar. Shu o'rinda maktabda o'quvchining o'quv fanlarini egallashi, bilimlarni o'zlashtirishi va o'z ustida mustaqil ishlashiga bog'liq bo'lib, bu jarayon kutubxonalar zimmasiga yuklatilgandir. Zamonaviy kutubxonachining o'рни va roli, o'z-o'zidan uning izlanuvchanligida, o'zligini anglashida, bor mahoratini ishga solib «jarayon»ni amalga oshirishidir[2]. Kutubxonachi tarbiya texnologiyasining loyihalovchisi ekanini anglab olmog'i va shu yo'nalishda boshqalarni ergashtirmog'i lozim. Bu esa ushbu yo'nalishdagi innovatsion faoliyatni muntazam olib borish lozimligini taqozo qilmoqda

Turli axborot vositalari orqali kirib kelayotgan ma'lumotlarning barchasi ham o'quvchining ma'naviy darajasi, madaniyatini yuksaltirishga xizmat qila olmaydi. Kitobxonga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, muloqot madaniyatining yetuk darajada bo'lishi, o'quvchining majburlashdan voz kechish va aksincha, ularni rag'batlantirishning ustunligi tufayli kitobxonlikni oshirishdan ko'zlangan niyatga erishish maqsadida o'quvchi faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llarini izlash zarur. Buning uchun kutubxonachilarning o'zlari bilim va pedagogik mahoratlarni takomillashtirib, kitobxon bilan

ishlashning yangi metodlari, vosita va yo‘llarini izlashni uzluksiz olib borishlari talab etiladi. U kutubxonachining faoliyati va munosabatiga, uning yangilikka intilishi, uni izlab topishi kitobxon bilan ishlash jarayoniga kirita olish va motivatsiyasiga bog‘liq jarayondir. Maktab kutubxonasi, axborot–resurs markazlari imkoniyatlaridan ta‘lim maskanlarida darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘tish bilan bog‘liq shart-sharoitlarni yaratish kerak.

Kutubxonachi kasbiy mahoratining asosiy qirralaridan biri tashkilotchilik qobiliyatidir. Kitobxonlar bilan samarali kitob targ‘ibotini tashkil etishda kutubxonachi ishga ijodiy yondoshishi, kitobxon yosh xususiyatidan kelib chiqib, ularni individual qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik o‘ziga xosliklarini e‘tiborga olishi lozim.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktab kutubxonachilari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan “Navro‘z –tinchlik elchisi”, “Hunar-hunardan rizqing unar”, “Ertaklar olamiga sayohat” kabi noan‘anaviy kitob ko‘rgazma- taqrizlar, adabiy kechalar, ovozli o‘qishlar, shuningdek “Bilimdonlar bellashuvi” (xalq ertaklari, maqollar, tez aytishlar asosida), “Qadriyatlar qalbimizda” tanlovlari kabi onlayn kitob targ‘ibotining usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Axborot-kutubxona muassasalarida hozirgi kunda respublikamizdagi yangiliklar, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ma‘naviy-ma‘rifiy yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida kitobxonlar bilan o‘tkaziladigan “Axborot kunlari” ham kitobxonlikni oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

“Axborot kunlari”ni tashkil etishda, albatta aniq voqea yoki respublikadagi ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy, fan va madaniyat yangiliklariga tayanish hamda o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olinishi lozim. Tadbir davomida o‘tkaziladigan suhbat uchun asosiy manba sifatida gazetalar, jurnallar, Internet ma‘lumotlari va o‘quvchilarni dars davomida olgan bilimlari bo‘lishi mumkin. Bu ma‘lumotlar dalillar asosida, qiziqarli bo‘lishi kerak. “Axborot kunlari” davomida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha yana qanday ma‘lumotlarga ega

ekanliklari, manbalarni qaerdan olish lozimligi kabi savollar orqali ularni kitobga bo'lgan ijobiy munosabatini yanada mustahkamlanadi. Bunday tadbirlarni **“Ta`limda 4K texnologiyalari”**, **“IT va yoshlar”**, **“Sun`iy intellekt imkoniyatlari”**, **“ Yangi O‘zbekiston-imkoniyatlar mamlakati”** kabi mavzularda o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchilar kutubxonachi yordamida ma’lumotlarni to‘plab, qiziqarli tarzda rasmlar va plakatlar ko‘rgazmalari, kitob va elektron nashrlari hamda, videoroliklar, taqdimotlar orqali ishtirokchilarga ma’lumotlarni yetkazishadi. Bu tadbirlar orqali kutubxonachilar o‘quvchi-yoshlarda axborotni qidirish, o‘rganish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va tajribasini, tadbirlarda qatnashish orqali kommunikatsiya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, hamda o‘z-o‘zini boshqarish, faollik, hamkorlik va hozirjavoblik, izlanuvchanlik kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga erishadilar.

Bugungi kunda fan-texnika va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti tufayli axborot hajmining doimiy ravishda o‘sib borishi, bosma nashrlar bilan birga elektron nashrlarning kutubxona fondiga kirib kelishi, kutubxonachidan zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va amaliyotda qo‘llay bilish malakalarini talab qiladi.[3] Kutubxonachi o‘z faoliyati davomida Internet ma’lumotlari, slaydlar namoyishi orqali kitoblarni targ‘ib etishi, jahon axborot olami bilan bog‘laydi va kitobxonlar uchun axborot olish, muloqot qilish va o‘qish imkoniyatlarini yaratadi.

Kutubxonada elektron resurslar, kataloglar, axborot banklari va Internet resurslar bo‘lishini ta’minlanishi va ular yordamida kutubxonada konsultatsiya va darslar tashkil etish, e’lon va ko‘rgazmali materiallar yaratish, uslubiy qo‘llanmalar, slaydshou va reklama uchun roliklar tayyorlash mumkin. Shuningdek, kutubxonada informatika o‘qituvchisi bilan hamkorlikda kompyuter klubi tashkil qilish orqali o‘qituvchi va o‘quvchilarga o‘quv fanlar va mavzulari bo‘yicha axborot resurslaridan foydalanishga ko‘maklashishi mumkin.

Xulosa shuki, ma'naviyat targ'ibotchilari bo'lgan kutubxonachilar o'z faoliyatlariga ijodiy yondoshib, kelajak egalarini barkamol inson sifatida voyaga yetishlariga ko'maklashish, hamda ularda intiluvchanlik, Vatan rivojiga munosib hissa qo'shishdek katta maqsadlar bilan yashash ko'nikmalarini shakllantirishni asosiy vazifalaridan bo'lib qolishi kerak. Shuningdek, davlatimiz va xorijiy mamlakatlar maktab kutubxonalari ish tajribalarini o'rganib, yangi axborot texnologiyalari vositalardan foydalangan holda o'qituvchi hamda o'quvchilarga kutubxona xizmatini tashkil etish hamda kitob targ'ibotining yangi zamonaviy usul va shakllarini ilmiy asoslangan ko'p variantlilik asosida ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.B.Ganiyeva. Axborot kutubxonalarda xizmatlarni tashkil etishda innovatika // Kutubxona UZ : Ilmiy-uslubiy jurnal.- Toshkent, 2021,2-son , 42 b.

2. G'anieva D.A., Ratner R.I. "Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish".-T., Yangi asr avlodi, 2017 yil.-326b

3. Murodxo'jaeva.Z. Kasbiy faoliyatni tashkil etish talablari.-// Ta'lim menejmenti, 2023 yil, 3- son, 48 b.

4.Yo'ldoshev E.Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish.- T.: «O'zbekiston», 2012.- 128 bet